

O'ZBEK ADABIYOTIDA MODERNIZMNING ILK KURTAKLARI

Muborak O'rozova

Termiz davlat universiteti talabasi muborakorozova2005@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada yuksak iste'dod sohibi Nazar Eshonqulning "Tobut", "O'lik mavsum", "Xaroba shahar surati", "Shamolni tutib bo'lmaydi" hamda "Maymun yetaklagan odam" hikoyalari badiiy talqin etiladi. Binobarin, adibning o'zbek modernizmiga qo'shgan ulkan hissasi uning asarlarida qo'llangan yangicha uslub va simvollar orqali keng yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *modernizm, ramz, emotsional-ekspressiv bo'yoq, ruhiyat, hikoya, badiiy talqin.*

Dunyo adabiyotini la'l-u javohirlarga to'la bir xazina desak, bu ganjning eng qimmatbaho va durdona yoqutiga o'zbek adabiyotini muqoyasa qilsa bo'ladi. Ganjni yangi durlar bilan bezashganidek, o'zbek adabiyotining xazinasini ham yangi adabiy yo'nalishlar, yangi oqimlar bilan to'ldirish, taraqqiy etkizish mumkin. Shunday oqimlardan biri – modernizm. Bu yo'nalishning ilk tamal toshlari esa o'ziga xos uslubi hamda qalami bilan o'zga adiblardan keskin farq qiladigan iqtidorli hamda taniqli yozuvchi Nazar Eshonqul tomonidan qo'yildi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek xalqining buyuk va zabardast yozuvchilaridan biri Nazar Eshonqul o'zining yuksak salohiyati, bilimi, so'zlardan jimjimador ma'nolarni keltirib chiqaruvchi ulkan iqtidori bilan adabiyot sohasiga kirib keldi. 1962-yil 15-iyun Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida tavallud topgan ushbu yozuvchining ko'plab hikoyalari orqali adabiyotimiz yuqori va yangi bosqichga ko'tarildi.

Uning barcha hikoyalari modernistik ruhda yaratilgani bilan kitobxonlar ongida muhrlanib qoldi, diqqat-e'tiborga sazovor bo'ldi va ayni damgacha sevib o'qilmoqda. Afsuski, o'sha hikoyalar yaratilgan paytidan iliq kutib olinmadi, ko'plab muhokamalarga duchor bo'ldi.

Muhokamalarga sabab bo'lishini o'zbek xalqining barcha yangi va o'zlariga yot bo'lgan narsalarga shubha bilan qarashida ko'rishimiz mumkin. Yozuvchining o'zi aytganidek, "Men "modernizmni insoniyatning ma'noviy inqirozi" sifatida baholayotganlarning e'tirozlarini o'qiganimda bir voqea yodimga tushadi: 70-yillar boshi edi.

Qishlog'imizdagi maktab direktorining uyida televizor paydo bo'lganda omi odamlar "bu shaytonning ko'zgusi, agar kimki uni tomosha qilsa, iblisning izmiga tushib qoladi" deb qo'rqitishgandi. Bugun esa o'sha omi odamlar ham televizorsiz hayotlarini tasavvur qilisholmaydi.

Ilgari ham qaysidir suhbatda aytgandim: "Modernizm – olabo'ji emas! U san'atda inson ruhiyatini chuqurroq aks ettirish uchun yangi metafora, yangi shakl topishga urinayotgan oqim. Unda ma'noviy inqiroz emas, balki inson iztirobi, inson zotiga shafqat, inson muhabbati-yu matonati yangi shakl va ifodalar orqali tasvirlanadi".

Ko'rinib turganidek, mazkur oqimning adabiyotimizga kirib kelishi ham oson kechmagan. Ammo Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Xurshid Davron kabi yozuvchilarimiz tashabbusi bilan ushbu oqim adabiyotimizda qo'rqmasdan o'z bo'y-

bastini namoyon eta oldi, shuning uchun biz hozir shunday ruhda bitilgan asarlardan bahramand bo'lmoqdamiz.

Shunday qilib, modernizm –XX asr san'ati va adabiyotida qo'llanilayotgan turli-tuman norealistik yo'nalish, oqim va uslublarning umumiy shartli nomi. U an'anaviy uslub va badiiy shakllardan voz kechib, yangi, zamonaviy uslub, shakllar topish borasida ko'p hollarda realizmga zid, shaklbozlikdan iborat adabiy oqim.

Modernizm tushunchasi o'zbek adabiyotiga 1990-yillarda kirib keldi, shu vaqtdan boshlab jadal rivoj topa boshladi va bu badiiy adabiyotimizning yuksaklikka ko'tarilishiga zamin hozirladi.

Albatta, bungacha ham "O'tkan kunlar", "Kecha va kunduz", "Yulduzli tunlar" va "Dunyoning ishlari" kabi dunyo yuzini ko'rgan kitoblarimiz ham mavjud bo'lgan. Ularda, asosan, syujet, voqealar rivoji va maishiy hayot ustunlik qilgan bo'lsa, hozirgi davrdagi asarlarda birinchi o'rinda inson va uning psixologiyasi, ruhiyati, anglanilishi mushkil bo'lgan o'y-kechinmalari aks etgan.

Nazar Eshonqul hikoyalarida inson, uning hayoti, ruhiy olami, ehtiyojlari va manfaatlari birinchi o'rinda turadi. Hikoyalari hajmi kamligi, oddiy, oson o'qiladigan, xalqona tilda yozilganligi bilan ham ajralib turadi. Lekin qahramonlarning salbiy yo' ijobiy xarakterda ekanligini shunchaki hikoyani birgina o'qish orqali bilib bo'lmaydi, ya'ni yozuvchi o'z hikoyalari orqali kitobxonlarni o'ylashga, mushohada yuritishga va ulardan xulosa chiqarishga undaydi.

Bir o'qishda biz yozuvchi nima demoqchi ekanini anglayolmay, bu - tushunarsiz, degan xulosaga kelamiz. Biroq u haqida ozroq o'y yuritsak, uning tagidagi ulkan ma'no-mazmunni anglay boshlaymiz. Shuningdek, yozuvchi hikoyalarida o'zining ko'nglidagi o'y-kechinmalarni barchaga yetkazib berish uchun majoziy, ko'chma ma'noli tasvirlar va ramzlarga murojaat qiladi.

Ramzning nimaligiga to'xtaladigan bo'lsak, u grekcha "symbolon" so'zdan olingan bo'lib, qadimgi greklarda maxfiy tashkilot a'zolarining bir-birini tanib olishi uchun qo'llaniladigan shartli belgini anglatgan. Badiiy adabiyotda ramz aniq tasavvur etish qiyin bo'lgan hodisa yoki tushunchalarni odamning ko'z oldiga yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi. Hikoyalarda qo'llanilgan ramzlar qahramonlarning betakror va takrorlanmas ruhiy dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

Bu holatni biz yozuvchining "Tobut", "O'lik shahar", "Xaroba shahar surati", "Shamolni tutib bo'lmaydi" hamda "Maymun yetaklagan odam" hikoyalarida uchratishimiz mumkin.

O'ziga xos uslubda yozilgan "Tobut" hikoyasida umumiy mazmunni ochib berishda tayanch vazifasini bajargan bo'yoqlardan yetarlicha foydalanilgan. Hikoyada qurilganiga uncha bo'lmagan shahardagi sababi noaniq o'lim voqeasi yoritilgan. Yozuvchi o'quvchini qiziqtirish maqsadida hikoyani tugun bilan boshlaydi.

Voqealar rivoji davomida shaharga muammoni hal qilish uchun har sohadagi mutaxassislar chaqirtiriladi, ammo ular ham o'latning sababini va uni bartaraf etishning yo'lini topa olmay, ajablangan holda qaytib ketishadi.

Mazkur hikoyada kishi hayotida psixologiyaning o'rni beqiyos ekanligini anglab yetish mumkin. Barchamizga ma'lumki, inson tafakkurida qanday o'y-fikr bo'lsa, uning

qilayotgan ishlari, xatti-harakatlari ham shunga monand bo'ladi. Biz buni aynan mana shu hikoyada ko'rishimiz mumkin, ya'ni uni o'qiganimizda shahar tobut - o'liklar solinadigan narsa shaklida qurilganini anglab yetamiz.

Albatta, o'lim shunchalar jirkanch va qo'rqinchli narsaki, uni o'ylaganimizdanoq etimiz junchikib ketadi.

Buning qandayligini o'quvchilarga his qildirish uchun muallif hikoyada me'mor tilidan ushbu holatni quyidagicha tasvirlaydi: "...chirkinlik, xazonrezgilik va badan hidi qorishib ketgan shaharda ufunat xuddi bu manzilga tashrif buyurganlarning burnini kuydirib tashlash uchun ataylab tarqatilayotgan edi: faqat lahaddagina shunday hid anqishi mumkin..." hamda "...nim qorong'i zinada shahar ko'chalarida kezib yurgan ufunat yana ham badbo'ylashgan edi, hid odamni behol qilib qo'yadigan darajada o'tkir va zaqqum edi. Hamma hujrada o'sha zulmat, hamma xonadonda yurakni seskantiradigan sukunat hukmron edi..."

"Shahar loyihasini chizgan me'mor keyinchalik bu ishidan afsuslanib, insoniyat boshiga tushishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan anglagan holda hatto o'sha shaharni yoqib yuborish taraddudiga tushadi va bu niyatiga yetolmay, aqldan ozadi. Yuqorida aytganimizdek, shahar tobut shaklida bunyod bo'lgan, endi u vaqt o'tgan sari shu shaharda yashovchilarni tobut orqali yodga tushadigan o'limga tomon asta-sekin olib ketmoqda. Bu jamiyat qanday bo'lsa, undagi odamlar taqdiri ham shunday bo'lishining isbotidir, ya'ni tobut barcha insonlarni o'z domiga tortmasdan qo'ymaydi. Bu fikrimizning isboti sifatida asarda me'mor tilidan aytilgan ushbu jumlaning tugunimizning yechimi sifatida keltirishimiz mumkin:"...

Ertasiga shaharning ulkan darvozasidan chiqib ketar ekanmiz, men bu manzilning mangu o'limga yuz tutganini, uni endi hech kim qutqarib qololmasligini, xuddi quyosh botgandan so'ng tun kelishi muqarrarday, tiriklik quyoshi botgan, ko'chalarida o'lim va telbalik kezib yurgan bu shaharga vayronalik tashrif buyurajagi, uzoq yillar hukm surgan e'tiqod birdan xarobaga yuz tutgani kabi bu shahar ham endi tanazzul tomon og'ishmay ketajagi haqida vahm va qo'rquv bilan o'yladim..."

"O'lik mavsum" hikoyasida o'qituvchi va o'quvchilar borasida gap boradi. Bunda o'qituvchining barcha o'quvchilarni o'ziga qahrabodek tortib, saboq berishi hamda o'quvchilarning uni juda sevishi, muhabbati pok va beg'araz ekanligi, uning birgina ma'ruzasini eshitishi, so'zlari changalida yana bir bor ezg'ilanishi, tafakkur va xayolotida sayr etishi uchun daftarlarini qo'ltiqlab yugurganicha saboqqa kelishi ular munosabatining uzilmas, mustahkam rishta ekanligidan dalolat beradi. Ular o'qituvchiga juda bog'lanib qolgan ediki, hatto bir kunini ham usiz tasavvur etolmasdi. Uchta-to'rtta talaba yig'ildimi, faqat ustoz haqida fikrlashishardilar.

Keyinchalik ularda u bilan yaqindan tanishish ehtiyoji ham paydo bo'ldi va shu boisdan hikoyani so'zlab beruvchi bolani uning uyiga jo'natadi. Manzil bo'yicha boradi, ammo odamlar yashaydigan uyga ko'zi tushmay, bir-ikki marta orqasiga ham qaytadi. Oxiri manzildagi raqamga qarasa, raqam qabristonni ko'rsatardi. Bolaning qolganlarga yetkazgan gapi quyidagicha edi: "...Bizga o'lik ustozlik qilibdi. Biz o'likka muhabbat qo'yibmiz..." Hikoyada ustozga shunday sifatlar beriladi: "...Balki undan anqib turgan bo'g'i q va badbo'y hid ham qudrat va ilohiyot darakchisi emasdir, biroq bu sirli va

salobatli tuyg'u ediki, biz bu tuyg'uni har soniya his qilib turardik..." hamda "...Sochiga hech qachon taroq tegmagan, patila va a'zo-yu badanidan qandaydir zaifgina qo'lansa hid anqir, ovozi qabrdan chiqayotgan va olislardan kelayotgan o'tmish sadolaridek qarimsiq va zardali edi, undan doimo nam tuproq hidi kelardi...

" Ushbu salbiylik bo'yog'ini ifoda etgan sifatlar ustozning ruhiyatini ochib berib qolmasdan , balki uning haqiqatdan o'lik ekanligiga ishora hamdir. Bu , albatta, ramziy ma'noda qo'llangan, ya'ni muallif ustoz obrazi orqali o'tkinchi , kishiga foydasi, nafi tegmaydigan narsalar, go'zal tushunchalar faqat tashqi tomondan shunday ekanligini, bu tomondan olib qarasa, ular aldamchi ekanligini, har narsaga haddan ziyod bog'lanib qolmaslikni uqtirmoqchi bo'ladi. Aks holda esa bularning barisi sarob bo'lib, kishi ongida yolg'onchi hoy-u havasdek qolib ketadi.

"Xaroba shahar surati" hikoyasi ham modernizm yo'nalishida yaratilgan bo'lib, unda insonning ruhiyati, ichki olami ro'y-u rost yoritilib berilgan. Hikoya qahramonning uyida paydo bo'lib qolgan surat voqeasi bilan boshlanadi. Bu suratdagi shahar shunchalik darajada vayrona holatda chizilgan bo'lsa-da, bu uni o'ziga shunchalar jalb etardiki, hatto o'zi ham "...ahvol-u ruhiyam bilan xaroba shahar o'rtasida qandaydir o'xshashlik borligini his etardim..." , deydi. O'sha surat qahramon tilidan

"...Suratga qarab turib doimo dud va dan hidini tuyardim: balkim, menga shunday tuylgandir, ammo bu oddiy tutunning hidi emasdi, men bunday achimsiq hidni ko'p yillar avval qishlog'imizga yovvoyi ayiq quvlaab yurib kelib qolgan bir guruh ovchilarning qurum bosgan miltig'ida his etgan edim va suratdagi hid haqiqatdan ham hozirgina ortlagan uyqum hidiga o'xshardi: ehtimol, bu hid mening dimog'imda shahar aqlbovar qilmas xiyonat va sotqinlikdan so'ng vayron etilgandir..." , deb tasvirlanadi. Bundan ko'rinadiki, xiyonat, sotqinlik kechirilmas tuyg'u, chunki u ko'ngilni qoldiradi. Qoldirilgan ko'ngil esa bir vayrona kabidir.

Ammo suratda bus-butun qolgan tegirmon parparini ham uchratish mumkin. Bunda tegirmon – ishonch va umid ramzi. Bu anglatadiki, ishonch va umid bor ekan, ruhi cho'kkan hayot ham hali so'nmagan bo'ladi. Anglasak, bu shaharni qahramon tarixda ham mavjud bo'lmagan nom bilan ataydi, ya'ni Tursoriya. Shuningdek, Tursoriya adolat, mehr-oqibat yo'q bo'lib ketgan, umidsizlik, tushkunlik hukmron bo'lgan, yovuzlashgan dunyoda mazmun va ma'no izlagan odamning samarasiz umri haqida hamdir. E'tibor beradigan bo'lsak, qahramonga ism berilmagan.

Bu Tursoriya hayotini mazmunsiz o'tkazgan barcha kishilarning xarobaga aylangan o'z shahri ekanligidan dalolatdir. Biz Tursoriyani o'zlik, o'zlikni anglashning ramzi desak, ham mubolag'a bo'lmaydi, chunki fikrimiz isboti sifatida qahramonning hikoya so'ngida mavjudligiga hatto tarixchilar ham ishonmagan Tursoriyani izlab ketishini misol qilib keltirishimiz mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, vaqtning qadriga yetmasdan , uni befoyda narsalarga sarflash - Alloh tomonidan beriladigan umr – bir martalik imkoniyatni qo'ldan boy berib, hayotimizni o'sha surat kabi xarobaga, vayronaga aylantirishimizga sabab bo'ladi.

"Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida bosh g'oya sifatida inson, uning qadri , matonati, sabr-bardoshi, vafosi va xotirasi tilga olinadi. Bu hikoyada asosiy qahramon -

Bayna momo va uning taqdir taqozosi bilan bir vaqtning o'zida eri va o'g'lidan ayrilgani, undan keyingi musibatlarga to'la hayoti qalamga olingan.

Bayna momoni ko'p azob va tashvishlarga solgan narsa butun tog' xalqining orini ko'targan, nomini chiqargan eri – Rayim polvonni quloq deya ta'qib qilishlariga, so'ng itday xor qilib otib tashlashlariga yo'l qo'ygan va eri bilan o'g'lini Zamonning qo'liga berib qo'ygan, qarshilik ko'rsatmagan, loqayd va befarqlarcha qarab turgan o'z qishloqdoshlarining mana shunday xatti-harakatlari edi. Shu boisdan doimo Bayna momo ularga nafrat ko'zi bilan boqadi.

Mana shunday xalqi sabab Bayna momo insonlarga ishonish degan tuyg'uni o'zidan batamom olib tashladi va doimo ulardan uzoqda, ayri holda yolg'iz hayot kechirdi.”...Bayna momo o'z yolg'izligi va musibatini hayotning badbo'y, zabun, xor etilgan hidlar anqib yotgan yo'llar dahlizidan yataklab o'tdi...” , deya Bayna momoning ruhiy holati yoritilib beriladi ushbu salbiy tushunchalar orqali. Bayna momo hamisha intiqom, o'ch ilinjida yashadi, qanday bo'lsa ham, Zamon otboqardan o'chini olishi kerak edi va unga berilgan umrni u mana shunday o'y-fikr bilan o'tkazdi, chunki uning ruhi eri va o'g'li bilan birga o'lib bo'lgan edi, faqat jasad bor.

Bu orqali biz Bayna momoning taqdirning barcha achchiq zarbalariga dosh bera olishini ko'rishimiz mumkin. Bag'ri qon bo'lgan Bayna momo eri va o'g'lining yodi, xotirasi bilan yashaydi, ularga doim hurmat ko'rsatdi. Biz buni qabristonda faqat ularning qabri toza ekanligidan bilishimiz mumkin.

Qalbida qasos o'ti doimo alanga olib turganidan Bayna momo mana shu maqsadiga yetsagina orom olishi mumkinligini anglaymiz. Bu orqali biz uning qat'iyatligini, o'z maqsadidan qaytmasligini, g'ururi, or-nomusi balandligini bilib olamiz va u o'z maqsadiga yetadi :Zamon otboqardan qasosini olib, hattoki ularga o'q otgan qo'lini ham kesib, uyiga olib keladi.”...Faqat uning barmoqlari qaltirab turar, xonaga qon hididay noxush hid o'tirib qolgandi, undan chirkinlik va musibat hidi anqir edi...” Hikoyadagi ushbu fikrlar uning qilgan ishidan va ruhiy holatidan darak beradi.

Asar nomiga keladigan bo'lsak, shamol – bu Bayna momo. Bilamizki, shamol - tutqich bermas, bo'sunmas tabiat hodisasi. Hikoyadagi obraz ham shunday. Unda ham bo'sunmaslikni, itoat etmaslikni ko'ramiz. Bayna momo – qishloqdoshlarining adolatsizligidan, ko'rnamakligidan uning cheksiz mehri qasos va g'azabga aylangan obraz timsoli. Uning hayoti shunchalar ayanchli kechadiki, hikoyani o'qiyotgan kitobxon uning taqdiridan hatto yig'lash darajasigacha boradi.

Unda insonlar va ularning qadri, o'rni yo'qligi ajoyib tarzda ochib berilgan va bu bilan bunday katta yo'qotishlarga chek qo'yish kerak demoqchi bo'lmoqda yozuvchi.

“Maymun yetaklagan odam” hikoyasi juda ko'p o'y-mulohazalar talab etadigan, ammo ulkan ma'no ifodalaydigan hikoya hisoblanadi. Biz bir qaraganimizdan asar sarlavhasida ikki xil ma'no mavjud ekanligini bilib olamiz, bir xil shaklda o'zgacha ikki ma'no – o'zbek tilining ko'p tomonlama ma'no qirralari mavjudligidan darak, ammo hikoyada qaysi ma'noda kelayotganini esa uni o'qimasdan anglayolmaymiz.

Hikoya qahramonning xarakteristikasini, tashqi ko'rinishini ochib berishdan boshlanadi.”...qaboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilin olingan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga

qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi...” Nazar Eshonqul ijodiga e’tibor beradigan bo’lsak, uning jamiki asarlaridagi qahramonlar hayotning ancha achchiq-chuchugini tortganidan, ko’p qiyinchiliklar ko’rganidan ularning ruhiy dunyosi o’zgargan va buni bizga yaqqol namoyon ifodalab berish uchun hamisha salbiy sifatlardan foydalanadi.

Bu ham ijodkorning mahoratidan va o’ziga xos uslubi mavjudligidan nishon beradi. Bunaqa tasvirlash hikoyaning keyingi bosqichlarida ham davom etadi. Masalan, “...uydan chirkin va badbo’y hid kelardi. Shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqdan ufurib turardi. Har burchakda puturdan ketayotgan umrning tanazzulidan darak berib turgan qo’lansa hid mavjud edi...” kabi.

Shuningdek, hikoyachi tilidan aytilgan “...hovlidagi chirkin va shilta hididan hamda cholning qo’lansa gaplaridan hamon o’zinga kelolmayapman...” kabi fikrlar orqali o’sha cholning butun ruhiyati “qorong’u” va “xira” tushunchalar orqali ta’riflanadi. Butun bir hikoyaning mazmuni ikki surat bilan yuzaga chiqadi.

Birinchi surat bo’yni kishanlangan maymunni yetaklab ketayotgan o’ziga ishongan, baquvvat, kuchli, qat’iyatli inson surati bo’lsa, bunda maymun – salbiylikni, yovuzlikni, yomonlikni ifodalovchi ramz, yigit esa ularga qarshi kurashgan va buni hayotining dastur-ul amaliga aylantirgan inson obrazi. Ikkinchisi esa odamni yetaklayotgan maymun surati hisoblanadi, bunda vaqt o’tib, kuchdan qolgan va shungacha yaxshilik yo’lida deb qilgan ishlari yomonlik, yomonlik deb qilmagan ishlari esa yaxshilik bo’lib chiqqanligi uni hayotda ikkilantirib tashlaydi va bu qoralikni ifoda etuvchi maymunga ergashishiga olib keladi.

Xullas, inson hayotidavomida juda ko’p to’siqlarga duch keladi, ammo shunday vaziyatlarda qiyinchiliklarga tik qarab, o’z maqsad va muddaosidan qaytmay, og’ishmay harakat qilishi kerakligi aytilgan.

Xulosa qiladigan bo’lsam, Nazar Eshonqul va boshqa bir guruh yozuvchilar ijodi va ular yaratgan asarlari bilan adabiyotimiz jadal rivojlandi va yangi bosqichga ko’tarildi. Ularning asarlarida asosiy mavzu - oldingidek ma’lum bir davr emas, balki inson va uning ruhiy olami.

Ahamiyat bersak, modernistik kayfiyatda yaratilgan hikoyalarda qahramonlar soni kam, qamrab olgan davr ham unchalik katta emas. Asosiy maqsad ruhiyatni ochib berish. Ushbu yo’nalishda ijod qilgan N. Eshonqul o’z uslubi g’ayritabiiyligi, ruhiyatni ochib berishda turli emotsional-ekspressiv bo’yoqdor so’zlardan mohirona foydalanganligi bilan o’quvchilar qalbidan chuqur joy oldi va bundan keyingi avlod kitobxonlari yuragini ham zabt etgay!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. www.ziyouz.com elektron kutubxona
2. Adabiyotshunoslik asoslari. T. Boboyev. "O'zbekiston". Toshkent-2002
3. 7-sinf adabiyot darsligi. Q. Yo'ldoshev va boshqalar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyoti. Toshkent. 2017.